

## TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI, OG'ZAKI VA SINXRON TARJIMA MASALALARI

*Turg'unbayeva Noila Dilshod qizi*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti*

*1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: PhD., dots. X. Muxammedova*

**Annotatsiya:** Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. U madaniy muloqot vositasi, tillararo va madaniyatlararo aloqani ta'minlash jarayoni. Ushbu maqolada tarjima nazariyasi va amaliyoti, og'zaki va sinxron tarjima masalalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, tarjimonlik, sinxron, og'zaki, pichirlab tarjima qilish, hamroh tarjimon, ketma-ket tarjima qilish.

### **Kirish**

Tarjima – tillar va madaniyatlar o'rtasida aloqa o'rnatuvchi ko'prik sifatida insoniyat tarixida muhim rol o'yanaydi. Bu jarayon xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash, ilmiy-texnik yutuqlarni almashish va madaniy merosni boyitish imkonini beradi. Bugungi kunda tarjima nazariyasi va amaliyoti global jarayonlarning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning ichida og'zaki va sinxron tarjima masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yer yuzining turli qit'alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odamzod nasllar o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon qildi. Uni xalqlararo aloqa vastasiga aylantirdi, undan doim samarali tarzda foydalandi. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir birlaridan xabardor bo'ldi, o'zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy qurilishi, dehqonchilik kabi sohalar asrma-asr rivojlanib, yo'lga qo'yib borildi.

**Tarjima nazariyasi asoslari.** Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang-barang tajribalarni ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini, ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi. Tarjima tanqidi tarjima bilan birga asliyat va uning muhitiga ham kirib boradi. Nazariyaning boyishi yo'lida izlanishlar olib boradi, tarjima qoidalari va prinsiplarining hayotiyiligi, ilmiy qimmatini oshiradi, ongli amaliyotni mustahkamlaydi, turli konsepsiyalarni sinovdan o'tkazadi. Nazariy yangiliklarga yo'l ochadi, nazariyani qotib qolishidan, dogma tusiga kirishidan va qolaversa, G'arb tarjimashunoslik ilmida bo'layotganidek nazariyani ortiqcha

murakkablashtirish, ba'zip o'rinlarda uni tushunib bo'lmaydigan darajada sorta ilmiylashtirishdan ogohlantiradi. Tarjima barcha ijod jarayonlari kabi og'ir kechadi. Lekin bu degani uning qonun-qoidalari, prinsiplarini haddan ortiq chigallashtirib, ayrim hollardan pashshadan fil yasashga sira hojat yo'q.

Tarjima nazariyasi tarjimonning lingvistik va madaniy tafovutlarni yengib o'tish jarayonini tadqiq qiladi:

Matnlarning leksik-semantik grammatik transformatsiyasini;

Stlistik moslashuv va madaniy o'ziga xoslikni yetkazishni;

Til va madaniyatlararo muloqot usullarini o'rganadi.

Tarjimon tilning mana shunday ulug'lovchi, odamni baxtiyor qiluvchi imkoniyatlarini ishga soli, taraqqiyotga xizmat qiluvchi shaxsdir. U chat tilini mukammal egallash bilan birga, ona tilida ham aniq va obrazli fikr bildirish qobiliyayiga ega bo'lishi zarur.

**Og'zaki tarjima.** Og'zaki tarjima deganda tarjimon o'z ona tilida eshitgan so'zlarni boshqa chet tiliga tarjima qilishi yoki boshqa tildan iboralarni boshqa tilga tarjima qilinishi tushuniladi. Og'zaki tarjima bevosita nutqni boshqa tilga o'tkazishni o'z ichiga oladi va quyidagi turlarga bo'linadi:

**1.1 Pichirlab tarjima qilish:** Bu turdagi tarjimon naushnik yoki mikrafondan foyalanmaydi. Tarjimon tarjima qilayotgan insonning qulog'iga kerakli so'zlarni pichirlab shoshmasdan pichirlab tarjima qiladi. Ushbu turdagi tarjima qiyin deb hisoblanadi, chunki u vokal kordlarga bosim o'tkazadi. Tarjimon tinglovcchiga ta'sir o'tkazmaslik uchun past va bosiq ovozda bildirishi kerak.

**1.2 Hamroh tarjimon.** Tarjimaning bu turida tarjimon o'z tarjimonlik qilgan shaxs yoki guruh bilan xoh ish uchrashuvlarda, xoh sayyohlik safarlarida bo'lsin har doim yonida bo'ladi. Bu bosqich boshqa tarjima toifalariga qaraganda qiyin, chunki tarjimon bir smsafarda bir necha qiyinchiliklarga uchrashi mumkin.

**1.3 Ketma-ket tarjima qilish.** Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va so'ng tingles chog'ida yozib olingan eslatmalar (note taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.

**Sinxron tarjima.** Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida o'tiradi va naushnik orqali so'zlovchini tinglaydi, so'ng tingles chog'ida mikrafon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegates asosiy tilni naushnik orqali tinglashadi.

Hozirgi kunda sinxron tarjima mahsus moslamalar bilan bajarilyapti: delegatlar kabinada so'zlanayotgan gapni naushnik orqali tinglab o'tirgan tarjimonlarga to'g'ridan-to'g'ri mikrafonda gapirishadi: tarjimonlar tarjimani eshitishni istayotgan, naushnik kiyib olgan delegatlar mikrafon orqali tarjima qilishadi. U tarjimasida so'zlovchi so'zining umumiy ma'nosini berishi kerak. Shu nuqtai nazardan, sinxron

tarjima tarjimaning eng qiyin turi hisoblanadi, chunki u tarjimondan mukammal va qoniqarli darajada tarjima qilish uchun yuksak aqliy va lingvistik ko‘nikmaga ega bo‘lishni talab qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, globallashuv ta’siri bilan dunyoda xorijiy tillarga e’tibor oshib bormoqda, bu tarjimaning ahamiyatini yanada oshirmayapti. Bu holat tilshunoslikka yangi jihatlarni qo‘shmoqda. Ayniqsa, tarjima nazariyasi va amaliyoti turli sohalarni birlashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Og‘zaki va sinxron tarjimonlar xalqaro aloqalarni ribojlantirishda asosiy o‘rin egallaydi. Zamonaviy tarjimonlar nafaqat tilni yaxshi bilishi, balki global madaniyat va texnologik yutuqlarni ham chuqur tushunishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tarjima nazariyasi: I. G‘ofurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 2016 b.
2. Gudgov D. B. Theory and practice of intercultural communication. – M.: ITDGK “Gnosis” , 2003.
3. Leontovich O. A. Russia and the USA: An Introduction and to Intercultural communication. – Volgograd : Change, 2003.
4. <https://oriens.uz> Internet sayti
5. Catford J. C. A linguistic theory of Translation. Lnd., Oxford Univ. Press. 1965